



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 370 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
Sobir Azizov	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
E. E. Jumayev	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
Jumayeva Gulxan Amrullayevna	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
Omonova Maftuna Shermatovna	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
Sevara Alimurodova, Ayubova Saïda	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
Nurmaxonov Kayrat Erpayizovich	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
Poyonova Fazilat Olimovna	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	
Ritmik she'r va harakatli mashqlar yordamida 1-sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash	311
Yadgarova Iroda Ikromovna	
Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli.....	314
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-kommunikativ motivatsiyani xalqaro miqyosda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	318
Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi	



Pedagogik ta'limda media savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	322
Gulmonova Guli Anvar qizi	
Pedagogik diagnostika vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning individuallashtirilgan ta'limni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi	327
Yuldashev Xusniddin Abdullayevich	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash	333
Bozorova Muxlisa	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyat turlari.....	337
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholash yo'nalishlari.....	341
Alimov Azim Anvarovich	
O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda motivatsiya va o'zini o'zi boshqarishning psixologik roli	347
Burtshova Aliya Burxonovna	
Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik metodlarning integrativ imkoniyatlari.....	354
Nazarova Vazira Bahron qizi	
Tasviriy san'at ta'limida inklyuziv yondashuv va raqamli ta'lim muhitining integratsiyasi	359
Shodmonova Munisa Furkatovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	365
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	

TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK METODLARNING INTEGRATIV IMKONIYATLARI

Nazarova Vazira Bahron qizi

Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolaning maqsadi oliy ta'limda talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi pedagogik mexanizmlarni aniqlash va tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqot adabiyotlarni nazariy va qiyosiy tahlil qilish usullariga tayandi. Tahlil natijasida muammolashtirish, axborotni tahlil qilish, qiyoslash, argumentatsiya, hamkorlikdagi muhokama, asoslangan qaror qabul qilish va refleksiya o'zaro bog'langan mexanizmlar ekani aniqlandi. Ularni o'quv mazmuni, top-shiriqlar hamda baholash mezonlariga integratsiyalash tanqidiy fikrlashni barqaror kompetensiya sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, oliy ta'lim, talaba, pedagogik mexanizm, muammoli ta'lim, argumentatsiya, refleksiya, keys-stadi, qiyosiy tahlil.

Abstract: The article aims to identify and systematize pedagogical mechanisms for developing university students' critical-thinking skills. The study relies on theoretical and comparative analysis of scholarly literature. The findings identify interconnected mechanisms: problematization, information analysis, comparison, argumentation, collaborative discussion, evidence-based decision-making, and reflection. Integrating these mechanisms into learning content, tasks, and assessment criteria supports the development of critical thinking as a sustainable competence.

Key words: critical thinking, higher education, student, pedagogical mechanism, problem-based learning, argumentation, reflection, case study, comparative analysis.

Аннотация: Цель статьи - выявить и систематизировать педагогические механизмы развития навыков критического мышления студентов в высшем образовании. Исследование основано на теоретическом и сравнительном анализе научной литературы. В результате определены взаимосвязанные механизмы: проблематизация, анализ информации, сравнение, аргументация, совместное обсуждение, принятие обоснованного решения и рефлексия. Их интеграция в содержание обучения, задания и критерии оценивания способствует развитию критического мышления как устойчивой компетенции.

Ключевые слова: критическое мышление, высшее образование, студент, педагогический механизм, проблемное обучение, аргументация, рефлексия, кейс-стади, сравнительный анализ.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri talabaga tayyor bilimlar majmuasini yetkazish bilan-gina cheklanmasdan, uni axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash, dalillarning ishonchligini baholash hamda asoslangan xulosa chiqarishga o'rgatishdan iborat. Shu jihatdan tanqidiy fikr-lash talabaning akademik muvaffaqiyati bilan birga, kelajakdagi kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishini belgi-lovchi muhim kompetensiya sanaladi.

M. J. Bezanilla va hammualliflar tanqidiy fikrlashni universitet talabasining shaxsiy va kasbiy hayoti uchun zarur kompetensiya sifatida baholab, uni o'quv dasturlari hamda mashg'ulotlarda maqsadli rivojlantirish zarur-ligini ko'rsatadilar ^[1]. Biroq ushbu kompetensiyani alohida intellektual qobiliyat sifatida emas, maxsus tashkil etilgan pedagogik sharoitda rivojlanadigan integrativ o'quv natijasi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning maqsadi – oliy ta'lim sharoitida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi pedagogik mexanizmlarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini asoslash va didaktik qo'llash yo'llarini belgilash.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va ta'lim metodikasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim jarayonida talabani tayyor axborotni o'zlash-tirishi bilan bir qatorda, uni mustaqil tahlil qilishi, manbalarni qiyoslashi, dalillarni baholashi, o'z nuqtayi nazarini asoslashi va muqobil qarorlarni ishlab chiqishi muhim kompetensiya sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan pedagogik metodlarni alohida emas, balki o'zaro integratsiyalashgan tizim sifatida o'rganish zarurati yuzaga keladi.

Tanqidiy fikrlash tushunchasining nazariy asoslari J. Dyui, R. Ennis, M. Lipman, P. Fasiona, D. Xalpern, S. Brukfeld va boshqa tadqiqotchilar ishlarida keng yoritilgan. J. Dyui ta'lim jarayonida refleksiv fikrlashning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratib, o'quvchining mavjud bilim va tajribasini muammoli vaziyatlar bilan bog'lash orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish mumkinligini ta'kidlagan. Uning yondashuvida fikrlash tayyor xulosani qabul qilish emas, balki muammoni anglash, dalillarni o'rganish, ularni baholash va asoslangan xulosaga kelish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Bu g'oya zamonaviy muammoli ta'lim metodlarining nazariy poydevorlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

R. Ennis tanqidiy fikrlashni insonning nimaga ishonish yoki qanday harakat qilish kerakligi haqida oqilona va refleksiv qaror qabul qilish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Tadqiqotchi tanqidiy fikrlashning muhim tarkibiy qismlari sifatida mulohazalarni tahlil qilish, dalillarni baholash, mantiqiy xulosa chiqarish va qarorlarni asoslash kabi ko'nikmalarni ajratadi. Bu yondashuvdan ko'rinib turibdiki, tanqidiy fikrlash bitta metod orqali emas, balki bir nechta intellektual operatsiyalarning o'zaro bog'liqligi asosida shakllanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida savol-javob, muammoli topshiriq, qiyosiy tahlil, munozara va argumentatsiya metodlarini bir-biri bilan uyg'unlashtirish samarali hisoblanadi.

P. Fasiona tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlash konsepsiyasida tahlil qilish, interpretatsiya, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o'z-o'zini nazorat qilish kabi ko'nikmalar asosiy komponentlar sifatida belgilanadi. Ushbu yondashuv pedagogik metodlarni integratsiyalash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Masalan, matn yoki axborotni tahlil qilish jarayonida talaba avval ma'lumotni tushunadi va interpretatsiya qiladi, keyin uning ishonchliligi va mantiqiy asoslarini baholaydi, dalillar asosida xulosa chiqaradi hamda o'z fikrini asoslaydi. Demak, birgina o'quv topshirig'i tarkibida tanqidiy fikrlashning bir nechta komponentini shakllantirish imkoniyati mavjud.

D. Xalpern tanqidiy fikrlashni maqsadga yo'naltirilgan, mantiqiy va refleksiv fikrlash sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari maxsus ravishda o'qitilishi va turli o'quv vaziyatlarida qo'llanishi kerak. Bunda talabaga faqat bilim berish emas, balki ushbu bilimdan yangi va murakkab vaziyatlarda foydalanish imkoniyatini yaratish muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, keys-stadi, muammoli vaziyatlar, loyihaviy ta'lim va debat kabi metodlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yuqori integrativ imkoniyatga ega. Chunki mazkur metodlarda talaba axborotni qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi, saralovchi, tahlil qiluvchi va qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida ishtirok etadi.

S. Brukfeldning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda savol berish, taxminlarni aniqlash, muqobil nuqtayi nazarlarni ko'rib chiqish va o'z fikrini qayta baholash jarayonlariga katta ahamiyat beriladi. Muallif tanqidiy fikrlashni shaxsning o'z qarashlari va ularning asoslarini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqishi bilan bog'laydi. Bu esa ta'lim jarayonida refleksiya metodining o'rnini yanada oshiradi. Xususan, dars yakunida "Men nimani o'rgandim?", "Qaysi dalil mening fikrimni o'zgartirdi?", "Mening xulosam qanday asoslarga tayanadi?" kabi refleksiv savollardan foydalanish talabani metakognitiv faolligini kuchaytiradi.

M. Lipmanning "Falsafa bolalar uchun" konsepsiyasida hamkorlikdagi fikrlash va dialogik ta'lim tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Uning yondashuviga ko'ra, fikrlash jarayoni muloqot va savollar orqali yanada chuqurlashadi. Bu g'oya oliy ta'limda guruhli muhokama, debat, "aqliy hujum", "munozara", "fikrlar almashinuvi" kabi interaktiv metodlardan foydalanishning ilmiy asosini belgilaydi. Hamkorlikdagi muhokama jarayonida talaba nafaqat o'z pozitsiyasini himoya qiladi, balki boshqa ishtirokchilarning fikrlarini eshitadi, ularni qiyoslaydi va zarur hollarda o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda faol va talabaga yo'naltirilgan ta'lim metodlarining samaradorligi ham ta'kidlanadi. Xususan, muammoli ta'lim talabani tayyor yechimni qabul qilishdan voz kechib, muammoni mustaqil anglash va uni hal qilish yo'llarini izlashga undaydi. Keys-stadi metodi real yoki modellashtirilgan vaziyat asosida axborotni tahlil qilish, bir nechta yechimlarni qiyoslash va eng maqbul qarorni tanlash imkonini beradi. Loyihaviy ta'lim esa tadqiqot olib borish, ma'lumot to'plash, manbalarni baholash, hamkorlik qilish va yakuniy natijani himoya qilish kabi bir nechta tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantiradi.

Shuningdek, ingliz tilini o'qitish jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun dialogik va kommunikativ metodlarning integrativ imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Chet tili darslarida matnni tahlil qilish, muallif pozitsiyasini aniqlash, fakt va fikrni farqlash, turli manbalardagi ma'lumotlarni qiyoslash, bahs-munozara tashkil



etish hamda o'z nuqtayi nazarini ingliz tilida dalillar asosida ifodalash mumkin. Bunday topshiriqlar bir vaqtning o'zida til kompetensiyasi va tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantiradi. Demak, til o'rganish jarayoni tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun tabiiy pedagogik muhit vazifasini bajara oladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samaradorligi muayyan bir metoddan foydalanish bilan emas, balki metodlarning maqsadli va tizimli integratsiyasi bilan belgilanadi. Muammoli vaziyat talabada savol va ehtiyojni yuzaga keltirsa, axborotni tahlil qilish va qiyoslash uning dalillarni saralash qobiliyatini rivojlantiradi. Argumentatsiya o'z fikrini mantiqiy asoslashga xizmat qilsa, hamkorlikdagi muhokama muqobil qarashlarni anglash va baholash imkonini beradi. Asoslangan qaror qabul qilish ushbu jarayonlarni amaliy natijaga olib keladi, refleksiya esa talaba tomonidan o'z fikrlash jarayonini baholash va takomillashtirishga sharoit yaratadi.

Shunday qilib, o'rganilgan ilmiy-nazariy manbalar tanqidiy fikrlashni ko'p komponentli va integrativ pedagogik hodisa sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Uning rivojlanishi uchun o'quv mazmuni, pedagogik metodlar, mustaqil topshiriqlar, muloqot muhiti va baholash mezonlari o'zaro muvofiqlashtirilishi lozim. Ayniqsa, baholash jarayonida faqat yakuniy javobni emas, balki talabaning dalil keltirishi, mantiqiy fikr yuritishi, muqobil fikrlarni hisobga olishi va o'z qarorini asoslay olish qobiliyatini baholash muhimdir. Shu asosda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik metodlarning integrativ modeli ta'lim mazmunini chuqur o'zlashtirish bilan birga, talabalarning mustaqil, dalillarga asoslangan va refleksiv fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Material sifatida 2019–2023-yillarda chop etilgan, oliy ta'limda tanqidiy fikrlashni o'qitish metodlari, bevosita o'qitish, to'g'ri va xato ishlangan misollarni qiyoslash hamda talabalar nuqtayi nazaridan samarali metodlarni yorituvchi ilmiy manbalar tanlandi ^[1–4].

Tahlilda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish, mazmuniy tahlil, qiyosiy tahlil, tasniflash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Manbalarni tanlashda ularning oliy ta'lim kontekstiga mansubligi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir aniq didaktik usulni yoritishi hamda ilmiy nashrda e'lon qilingani mezon qilib olindi.

Manbalardagi usul va natijalar uch savol asosida tahlil qilindi:

- (1) metod talabaning qaysi fikrlash faoliyatini faollashtiradi;
- (2) u dalil, muqobil yechim yoki qarorni baholashga qanday sharoit yaratadi;
- (3) metod refleksiv baholash bilan qanday bog'lanadi. Shu asosda mexanizmlarning yaxlit modeli shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bir-biridan ajralgan metodlar yig'indisi emas, balki ketma-ket va o'zaro bog'langan pedagogik faoliyatlar tizimi ekanligi aniqlandi. Ushbu tizim quyidagi mantiqiy zanjirda ifodalanadi: muammo → tahlil → qiyoslash → dalillash → muhokama → qaror → refleksiya (1-jadval).

1-jadval: Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi pedagogik mexanizmlar, talaba faoliyati va kutiladigan natijalar

Pedagogik mexanizm	Talaba faoliyati	Kutiladigan natija
Muammolashtirish	Muammoni aniqlaydi, taxminlarni ilgari suradi.	Tayyor javobdan mustaqil izlanishga o'tadi.
Axborotni tahlil qilish va qiyoslash	Manbalar, dalillar va yechimlarni taqqoslaydi.	Ishonchlilikni baholash ko'nikmasi rivojlanadi.
Argumentatsiya va muhokama	Pozitsiyasini dalillaydi, qarshi fikrni tahlil qiladi.	Asoslangan xulosa chiqarish shakllanadi.
Keys-stadi va hamkorlik	Real vaziyatni guruhda tahlil qiladi, muqobil yechim yaratadi.	Bilimni kasbiy vaziyatga tatbiq etadi.
Refleksiya	O'z qarori va fikrlash yo'lini qayta baholaydi.	Metakognitiv nazorat kuchayadi.

Birinchi natija tanqidiy fikrlashni maqsadli va bevosita o'qitish zarurligidir. N. El Soufi va B. H. See ko'rib chiqqan tadqiqotlar maxsus tanqidiy fikrlash strategiyalariga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarning istiqbolli ekanini ko'rsatadi ^[2]. Demak, professor-o'qituvchi "Nima uchun?", "Qaysi dalilga asoslanmoqda?", "Boshqa yechim bo'lishi mumkinmi?" kabi savollar orqali talabaning fikrlash faoliyatini boshqarishi lozim.



Ikkinchi natija muammoli ta'limning markaziy o'rni bilan bog'liq. Muammoli topshiriq talabani mavjud bilimlari va yangi vazifa o'rtasida intellektual ziddiyat yaratadi. Uning didaktik samarasi muammoning o'zida emas, balki talabani muammoni aniqlashi, muqobil yechimlarni ishlab chiqishi va tanlangan yechimni dalil-lashida namoyon bo'ladi.

Uchinchi natija qiyosiy tahlil va keys-stadining samarali vosita ekanidir. To'g'ri hamda xato ishlangan misollarni qiyoslash talabadan nafaqat javobni tanlashni, balki uning asoslanganligini tushuntirishni talab qiladi ^[3]. Real yoki real hayotga yaqin keyslar esa faktlarni ajratish, yetishmayotgan ma'lumotni aniqlash, bir nechta yechim taklif qilish va oqibatlarini baholash imkonini beradi ^[1; 4].

Olingan natijalar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlarining umumiy xususiyati – talabani bilish jarayo-nining faol subyektiga aylantirishini ko'rsatadi. Munozara, loyiha asosida o'qitish, real sharoitdagi amaliyot, tadqiqot faoliyati, hamkorlikdagi ta'lim va keys-stadi aynan shu jihati bilan birlashadi ^[4]. Shuning uchun o'qituv-chi faoliyatiga markazlashgan usullardan talaba faoliyatiga asoslangan metodlarga o'tish muhimdir.

Argumentatsiya pedagogik jihatdan faqat fikr bildirish emas, balki fikrni dalil bilan mustahkamlash, qara-ma-qarshi pozitsiyani tinglash va yangi dalillar ta'sirida dastlabki qarorni qayta ko'rib chiqish jarayonidir. Bunda baholash mezoni talabani faolligi bilangina emas, dalilning ishonchligini tekshirishi, qarshi pozitsiyani tahlil qilishi va yakuniy xulosani asoslay olishi bilan belgilanadi ^[1].

Refleksiya mazkur tizimning yakuniy emas, balki barcha bosqichlarini birlashtiruvchi metakognitiv mexanizmdir. Mashg'ulot yakunida "Qaysi dalil fikringizni o'zgartirdi?", "Qaysi xulosangiz yetarli asoslanmagan edi?" kabi savollardan foydalanish talabani o'z fikrlash yo'lini anglashiga yordam beradi. Natijada tanqidiy fikrlash epizodik mashqdan barqaror intellektual faoliyat usuliga aylanadi.

Shunday qilib, aniqlangan mexanizmlar alohida qo'llanganda ham foydali bo'lsa-da, ularni yagona didaktik siklga birlashtirish yuqoriroq natija beradi. Bunda talaba muammoni anglaydi, manbalarni tahlil qiladi, muqobil pozitsiyalarni qiyoslaydi, qarorini dalillaydi, guruhda muhokama qiladi va yakunda o'z faoliyatini refleksiv baho-laydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik metodlarning inte-grativ imkoniyatlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. O'rganilgan ilmiy-pedagogik manbalar asosida tanqidiy fikrlash birgina intellektual ko'nikma emas, balki o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator kompetensiyalar majmuasi ekanligi aniqlandi. Jumladan, muammoni aniqlash, savol qo'yish, axborotni izlash va tahlil qilish, dalillarni baholash, qiyoslash, argument keltirish, muqobil nuqtayi nazarlarni ko'rib chiqish, asoslangan qaror qabul qilish va reflek-siya tanqidiy fikrlashning muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur ko'nikmalarni shakllantirishda muammoli ta'lim metod-laridan foydalanish alohida samaraga ega. Muammoli vaziyat talabani tayyor javobni qabul qilishdan ko'ra, muammoning mohiyatini anglash, uning sabablarini aniqlash va mavjud bilimlari asosida yechim izlashga undaydi. Bunday jarayonda talabani mustaqil fikrlashi, mantiqiy mulohaza yuritishi va qaror qabul qilish qobiliyati faollashadi. Shu sababli o'quv mashg'ulotlarida muammoli savollar, ochiq topshiriqlar va bir nechta yechimga ega vaziyatlardan muntazam foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Axborotni tahlil qilish va qiyoslash metodlari ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy axborot makonida talabalar turli manbalardan katta hajmdagi ma'lu-motlarni qabul qiladilar. Bunday sharoitda ularning axborotning ishonchligini aniqlashi, fakt va subyektiv fikrni farqlashi, turli manbalardagi ma'lumotlarni qiyoslashi va dalillarning asoslanganlik darajasini baholay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ta'lim jarayonida turli manbalarni solishtirish, matnlarni tahlil qilish, dalillarni tasniflash va xulosalarni asoslashga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish tanqidiy fikrlashning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda refleksiya jarayoni ham alohida ahamiyatga ega. Refleksiya orqali talaba o'zining qanday fikrlagani, qanday dalillarga tayangani, qaysi qarorga nima sababdan kelgani va o'z faoliyatida qanday kamchiliklarga yo'l qo'ygani anglaydi. Bu esa o'z-o'zini baholash va o'z faoliyatini takomillashtirish ko'nikmalarining shakllanishiga olib keladi. Shuning uchun har bir mashg'ulot yakunida qisqa refleksiv savollar, o'z-o'zini baholash topshiriqlari va fikr-mulohazalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning muhim xulosalaridan biri shundaki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik metodlarni alohida-alohida qo'llashdan ko'ra, ularni yagona didaktik tizim sifatida integratsiyalash yuqori samaradorlikka ega. Masalan, o'quv mashg'uloti muammoli savol bilan boshlanishi, keyingi bosqichda talabalar turli manbalar asosida axborotni tahlil qilishi va qiyoslashi, undan so'ng guruhli muhokama yoki debat orqali o'z qarashlarini himoya qilishi, yakunda esa asoslangan qaror va refleksiv xulosa shakllantirishi mumkin. Bunday ketma-ketlik tanqidiy fikrlashning turli komponentlarini bir butun pedagogik jarayonda rivojlantirish imkonini beradi.



Ingliz tilini o'qitish jarayonida mazkur integrativ yondashuvdan foydalanish yanada katta pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Xususan, ingliz tilidagi autentik matnlarni tahlil qilish, muallif pozitsiyasini aniqlash, fakt va fikrni ajratish, turli manbalardagi ma'lumotlarni qiyoslash, muammoli savollarga javob berish, bahs-munozaralarda ishtirok etish va o'z nuqtayi nazarini ingliz tilida asoslash orqali bir vaqtning o'zida ham kommunikativ kompetensiya, ham tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish mumkin. Bu esa chet tilini o'qitish jarayonini faqat til birliklarini o'rgatish bilan cheklamasdan, talabalarni mustaqil va faol fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirish imkonini beradi.

Shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchining roli ham muhimdir. O'qituvchi tayyor bilimni yetkazuvchi subyekt emas, balki talabani mustaqil izlanishi, fikrlashi va xulosa chiqarishini tashkil etuvchi pedagog sifatida faoliyat yuritishi kerak. Bunda o'qituvchi ochiq va muammoli savollar berishi, talabalarni turli nuqtayi nazarlarni ko'rib chiqishga undashi, xatolarni jazolash emas, balki ularni o'rganish va tahlil qilish imkoniyati sifatida qabul qilishi lozim. Erkin fikr almashish uchun qulay psixologik va pedagogik muhitning yaratilishi ham tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, pedagogik metodlarning integrativ qo'llanilishi talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun samarali didaktik mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Muammolashtirish talabani fikrlashga undasa, axborotni tahlil qilish va qiyoslash dalillarni baholash ko'nikmasini shakllantiradi. Argumentatsiya va hamkorlikdagi muhokama o'z fikrini asoslash hamda boshqa qarashlarni anglashga yordam beradi. Asoslangan qaror qabul qilish fikrlash jarayonini amaliy natija bilan bog'lasa, refleksiya talabani o'z fikrlash faoliyatini anglash va takomillashtirishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oliy ta'limning barcha bosqichlarida tizimli, izchil va integrativ tarzda tashkil etilishi lozim. Pedagogik metodlarni o'quv mazmuni, topshiriqlar, mustaqil ta'lim faoliyati va baholash mezonlari bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarning nafaqat akademik bilimlari, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish va o'z faoliyatini refleksiv baholash kompetensiyalari ham rivojlanadi. Mazkur yondashuv zamonaviy oliy ta'limning kompetensiyaviy talablariga mos kelib, raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va o'z qarashlarini asoslay oladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda pedagogik metodlarning integrativ modelini amaliy tajriba-sinov asosida tekshirish, talabalarning tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish hamda ingliz tilini o'qitish jarayonida mazkur metodlarning samaradorligini empirik jihatdan baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dewey J. How We Think. - Boston: D. C. Heath and Company, 1933.
2. Ennis R. H. Critical Thinking Assessment // Theory into Practice. - 1993. - Vol. 32, No. 3. - P. 179-186.
3. Facione P. A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. - Millbrae, CA: The California Academic Press, 1990.
4. Halpern D. F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. - 5th ed. - New York: Psychology Press, 2014.
5. Lipman M. Thinking in Education. - 2nd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
6. Brookfield S. D. Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions. - San Francisco: Jossey-Bass, 2012.
7. Paul R., Elder L. The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools. - Dillon Beach, CA: Foundation for Critical Thinking, 2008.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.